

“OILAVIY KITOBXONLIK-MUVAFFAQIYAT POYDEVORI”

Rahmonova Dilrabo Ibrohim qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika va Psixologiya mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

rahmonovad786@gmail.com

Ilmiy rahbar:p.f.f.d.PhD M.Mirzayev

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oilaviy kitobxonlik va bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilanishining sabalari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *kitob, kitob mutolaasi, besh tashabbus, oilaviy kitobxonlik, ertak kitoblar, bolalar ensklopediyasi, rag'batlantirish*

Abstract: *This article discusses family reading and children's reading culture formation, as well as the reasons for setting the development of reading culture as a priority of state policy.*

Key words: *book, reading book, five initiatives, family reading, story books, children's encyclopedia, encouragement*

Аннотация: *В данной статье рассматривается формирование культуры семейного чтения и детского чтения, а также причины постановки развития культуры чтения в качестве приоритета государственной политики.*

Ключевые слова: *книга, чтение книг, пять инициатив, семейное чтение, сборники рассказов, детская энциклопедия, поощрение.*

Mamlakatning taraqqiy etishi, millatning yuksalishi ma'naviyatli, ma'rifatli, barkamol yoshlarga bog'liqdir. Kitob mutolaasi esa yoshlarni tarbiyalashda, ularning ma'naviy axloqini tarbiyalashda muhim vositadir. Kitobxonlik madaniyatini yoshlikdan shakllantirib borish lozim. Yoshlikdan bolada kitobga mehr tuyg'usini uyg'otish, bolaning ma'naviy oziqlanishiga, kamol topishiga yordam beradi. Bolada kitobga mehr uyg'otish, avvalo, oiladan boshlanadi. Ota-ona kitob mutolaa qilsa, farzandda ham asta-sekin kitob mutolaa qilish ko'nikmalari shakllanadi. Yangi davr shiddati jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarda kitob o'qish ko'nikmasi shakllansa, kelajak yo'lida qolgan barcha amallarni kitobning o'zi o'rgatadi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Miromonovich ham yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratdi. Buning yorqin dalili sifatida “Besh muhim tashabbus” va “Harakatlar strategiyasi”ni ko'rishimiz mumkin. **“Kitob**

o'qigan, o'z ustida ishlagan odamda qanoat bo'ladi.U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi.Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi."Kattalar"ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor,ilmi bor.Mana nima uchun kitob o'qinglar deymiz. Kitob o'qisangiz savol berishni bilasiz", deb ta'kidladi yurtboshimiz.

“Besh muhim tashabbusning to'rtinchi tashabbusi — aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida 9 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarining kutubxonalarida “tayanch kutubxonalar” faoliyati yo'lga qo'yilgan, ta'lim muassasalari jami 25 200 nomdagi 42 968 ta badiiy adabiyot bilan ta'minlangan. Butun dunyoda hukm surgan pandemiya tufayli mamlakatimizda joriy etilgan karantin cheklovlari davrida o'quvchilar bilan kitobxonlik onlayn tanlovlari o'tkazilib, ularga 854 nafar o'g'il-qiz jalb qilingan”.¹⁴ Bundan tashqari “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi ishlab chiqildi”¹⁵. Yuqoridagi hujjatlardan ma'lumki, kitobxonlikni rivojlantirish davlatning ustuvor vazifalaridan biridir.

Farzand , avvalo, oilada kamol topadi, ulg'ayadi. Ota-ona farzand tarbiyasiga mas'ul insonlardir. Farzandning ma'naviyati-ma'rifati milliy urf-odatlar, kitobxonlik orqali shakllanadi. Farzandlarimizni kitob mutolaa qilishga o'rgatishda bizning o'zimiz o'rnak bo'lishimiz lozim. Oilada bolalarga kitobxonlikni o'rgatishda bir qancha tavsiyalar beramiz:

- Ota-onalar bolalar xonasida kitob burchagi yaratib berishi;
- Farzandning yoshiga mos, psixologik jihatdan aqliy faoliyatiga mos keluvchi kitoblar tanlashi;
- Bolaning go'daklik davrida ko'proq rasmlı kitoblar, qiziqarli ensklopediya kitoblarni olib berishi;
- Ota-onalar farzandlari bilan birgalikda kitob o'qishni kunlik odatga kiritishi;
- Farzandlarga olib berilgan kitoblarni o'qib tugatish uchun ma'lum muddat vaqt berishi;
- Kitob o'qish yakunlangach farzanddan kitobning mazmunini qisqacha so'rash;
- Bolani kitob mutolaasini tugatgandan so'ng rag'batlantirish, misol uchun yoqtirgan narsasini olib bering yoki biror joyga sayrga olib boring;
- Bolalarga kitob mutolaasi qiziqarli bo'lishi uchun kitob asosida ishlangan multifilm yoki badiiy filmlarni ham vaqti-vaqti bilan birgalikda tomosha qiling;

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Xalq deputatlari Boyovut tumani kengashining qo'shma qarori, 25.02.2021 yildagi 19/118-6-son

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.12.2020 yildagi 781-son

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, farzandlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini uyg'otish ota-onalarning qo'lidadir. Xoh diniy kitob bo'lsin, xoh ilmiy yoki badiiy kitob farzandingizga mutolaa jarayoniga ko'maklashing. "Oilada bolalarning kitobxon bo'lishi, onalarga bog'liq. Albatta, otalar ham bundan mustasno emas. Bola shakllanayotgan paytda, uning oldida kitob o'qish, doimo unga vaqt ajratib gaplashish, fikrini eshitish, uxlashidan oldin ibratli hikoyalar o'qib berish bolaga ijobiy ta'sir ko'rsatib, kitobxon bo'lishiga sabab bo'ladi"¹⁶ Bu kabi tarbiyaga doir kitoblarda ham bolalarda kitobga bo'lgan ilk muhabbatning oilada shakllanishi ta'kidlab o'tilgan.

Mamlakatimizda yurtboshimiz tomonidan bir qancha kitobxonlik tanlovlari joriy qilindi: "Yosh kitobxon", "Kitobxon oila", "Kitobxon mahalla" kabi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashabbusi bilan eng yaxshi kitobxonlarga Prezident sovg'asi "Spark" avtomashinasi taqdim etilishi ko'plab yoshlarning mutolaa bo'lgan qiziqishini rag'batlantirdi. Farzandlarimiz kitob mutolaa qilish orqali nafaqat bu kabi sovg'alarga ega bo'lishi mumkin, asosiysi ular o'z dunyoqarashini, tafakkurini kamol toptiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Xalq deputatlari Boyovut tumani kengashining qo'shma qarori, 25.02.2021 yildagi 19/118-6-son
- 2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.12.2020 yildagi 781-son
- 3."Tarbiya-chi?" G'iyosiddin Yusuf 15-bet

¹⁶ "Tarbiya-chi?" G'iyosiddin Yusuf 15-bet